ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

DILMURODOVA NILUFAR ASATULLAYEVNA

ASAD DILMUROD NASRIDA MUALLIF SHAXSIYATI VA IJODIY TUTUM UYG‘UNLIGI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO‘K: **821.512.133.09-31**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по филологическим наукам

Dilmurodova Nilufar Asatullayevna
Asad Dilmurod nasrida muallif shaxsiyati va ijodiy tutum uyg‘unligi..... 3

Dilmurodova Nilufar Asatullaevna
The harmony of the author’s personality and creative attitude in the prose of Asad Dilmurod 25

Дилмуродова Нилуфар Асатуллаевна
Личность автора и гармония творческой лаборатории в прозе Асада Дилмурада 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 54

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

DILMURODOVA NILUFAR ASATULLAYEVNA

ASAD DILMUROD NASRIDA MUALLIF SHAXSIYATI VA IJODIY TUTUM UYG‘UNLIGI

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (XX asr o‘zbek adabiyoti va hozirgi adabiy jarayon)

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fil3074 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yakubov Islamjon Axmedjanovich** filologiya fanlari doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Miliyev Suvonqul** filologiya fanlari doktori, professor
	Yo‘ldoshev Qozoqboy Boybekovich pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 1-may soat 14^{00} dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (341 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; www.tsuull.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “19” 04 kuni tarqatildi.
(2025-yil “19” 04 dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi)

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

N.A. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida shoir, yozuvchi va dramaturg ijodiy shaxsiyati, adabiy-estetik qarashlari va badiiy ijodining uyg‘unligi, badiiy asarlaridagi muallif “men”i va uning mohiyatini o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Zotan, har bir yozuvchining individualligi uning: a) butun iymon-e’tiqodi; b) o‘z “men”ligiga sadoqati; d) ijod mas’uliyatini teran anglashi; e) mehnatsevarligi; f) o‘z salaflari hamda zamondoshlarining tajribalarini ijodiy o‘zlashtirishi; g) davr kun tartibiga qo‘ygan dolzarb hayotiy muammolarga badiiy-estetik munosabat bildirishi; h) zamondoshlari ong-shuuri va ruhiyatida kechayotgan murakkab po‘rtanalar, xatti-harakatlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va yangilanishlarni nozik ilg‘ashi; i) anglab yetgan va hissiy idrok etgan haqiqatlarini o‘ziga xos shakliy-uslubiy yo‘sinlarda poetik ifodalay olish mahorati; j) haqiqatga sadoqati va xolis pozitsiyasi singari ko‘plab omillarda namoyon bo‘ladi. Darhaqiqat, yozuvchi o‘z zamonasi madaniy hayotining ritmiga quloq tutadi. Hayotiy muammolarga badiiy yechim izlaydi va muayyan poetik hukm chiqaradi.

Dunyo adabiyotshunosligida ijodkor shaxsi va uning o‘zi mansub davrda kechayotgan ijtimoiy-madaniy, ma’naviy-axloqiy o‘zgarish va yangilanishlarga munosabati, badiiy ijodining yetakchi tamoyillari hamda manbalari, adabiy-estetik qarashlarining badiiy ijodga ko‘chish mexanizmi, poetik mahorat sirlari kabi ko‘plab adabiy-estetik masalalar dolzarb sanalib kelinmoqda. Tabiiyki, bu hol shiddat bilan (intensiv) rivojlanayotgan zamonaga hamqadam bo‘lish, dunyo adabiy-estetik tafakkurida mavjud ilg‘or ilmiy maktablar va rang-barang uslubiy oqim va yo‘sinlarga asoslanuvchi shoir, adib va dramaturglarning ijodiy laboratoriyasini alohida-alohida, ijodiy evolyutsiyasi negizida, shuningdek, davr adabiy jarayoni hamda yaxlit badiiy adabiyot kontekstlarida o‘rganishni taqozo etadi.

O‘zbek adabiyotshunosligida yozuvchi ijodiy faolligini yuzaga keltiruvchi ijtimoiy-siyosiy, adabiy-psixologik omillarning ildizlarini aniqlash, ijodkor “men”i, ijod laboratoriyasi va yaxlit ijodining o‘zaro mushtarakligini nafaqat ijodiy niyat, estetik ideal, ijodiy konsepsiyasi, poetik mahorat singari adabiy-estetik kanonlar doirasida, balki badiiy ijod psixologiyasi, ijodkor shaxsning adabiy an’anaga munosabati, ijodiy kredosi, poetik tafakkur kengligi, taxayyul ufqlari yuksakligi, dunyoqarashi kabi adabiy-falsafiy hamda ijtimoiy-psixologik muammolar negizida ham, sifatida ham o‘rganish hamisha dolzarb sanalib kelingan. Bu jarayon adabiyotshunoslikning har bir bosqichida davr imkon bergan darajada yuzaga chiqqan. Mustaqillik davri erkin plyuralistik tafakkuri bergan imkonlar doirasida yanada faollashmoqda. Zotan, “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o‘lmas meros hamisha yonimizda bo‘lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag‘ishlashi lozim”[1]. Adabiyotshunoslik uchun muhim bo‘lgan shu xususiyatlarni xalqimizning sevimli yozuvchisi Asad Dilmurod (1947-2019) adabiy shaxsiyati, badiiy ijod laboratoriyasi va yaxlit ijodi misolida ana shu jarayonlarni tahlil va tadqiq etish zaruriyati tadqiqot mavzusining dolzarbligini tasdiqlaydi.

[1] Мирзиёев Ш.М. “Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир”. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. 2020 йил, 30 сентябрь. – Б. 1.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekiston yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon, o‘zbek va qardosh xalqlar adabiyotshunosligida muallif ijodiy shaxsiyati va ijod laboratoriyasi bilan bog‘liq muammolar muayyan darajada o‘rganilgan. Ilmiy tadqiqotning biografik metodiga xos yetakchi tamoyillar asosida bir qator asarlar yuzaga keldi. Ularda yozuvchi biografiyasi va ijodi bir butunlikda talqin qilindi. Jumladan: “Adabiy portretlar, tanqidiy ocherklar”, “Jozef Delorm hayoti, she’rlari va fikrlari” (Sent-Byov)[2], “Adabiy portretlar”, “Olimpia yoki Viktor Gyugo hayoti”, “Onore de Balzak” (A.Morua)[3], “So‘z kimyosi” (Yan Parandovskiy)[4], “Gyote bilan suhbatlar” (I.P.Ekkerman)[5], “Andre Morua” (F.Narkiryer)[6], “Talqin va baholash san’ati” (Yu.Borev)[7] kabi tadqiqotlar biografik metodning jahon adabiyotshunosligida munosib o‘rin tutishini ko‘rsatadi[8]. A.Seytlin, P.Medvedov, Yu.Oklyanskiy, B.Meylax, T.Kuzminskaya, L.M.Leonov, B.A.Grifsov, M.B.Xrapchenko, L.Tolstoy kabi qalamkashlarning maqola va tadqiqotlarida yozuvchi ijodiy mas’uliyati va badiiy ijod zahmati, badiiy ijod laboratoriyasi, muayyan asarning yozilish hamda badiiy sayqallanish jarayonlari, uning vaqt sinovidan o‘tib,

[2] Жданов В.Н. Метод Сент-Бева как историка французской литературы. Дисс. канд. филол. наук. – М.: МГУ. 1978; Обломиевский Д.Д. Сент-Бёв – поэт. Французский романтизм. – М.: Гослитиздат, 1947; Симонова Л. А. Французский личный роман: автор/герой (Шатобриан, Констан, Сент-Бёв, Бальзак). – М.: Буки Веди, 2013.

[3] Моруа А. Олимпио или жизнь Виктора Гюго. – М.: Россия-Кириллица, 1992; Он же. В поисках Марселя Пруста. Перевод с фр. Д. Ефимова. – СПб.: Лимбус Пресс, 2000.

[4] Парандовский Я. Алхимия слова. – М.: Прогресс, 1972.

[5] Эккерман И.П. Разговоры с Гёте в последние годы его жизни. Перевод. Н.Ман. – М.: Художественная литература. 1981; Он же. Гёте билан гурунглар. (Олмон тилидан Янглиш Эгамова таржимаси). – Тошкент: O‘zbekiston, 2016.

[6] Наркирьер Ф.С. Андре Моруа. – М.: Художественная литература. 1974.

[7] Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки: (Опыт прочтения «Медного всадника»), – М.: Советский писатель. 1981.

[8] Сент-Бёв. Литературные портреты. – М.: Художественная литература, 1970; Он же. Жизнь, стихотворения и мысли Жозефа Делорма. – Л.: Наука, 1985; Моруа А. Литературные портреты. – М.: Прогресс, 1971; Он же. Олимпиа или жизнь Виктора Гюго. – М.: Прогресс, 1983; Он же. Оноре де Бальзак // Жаҳон адабиёти. 1999, №8; Парандовский Ян. Алхимия слова. – М.,1972; Эккерман И.П. Разговоры с Гёте. – М., 1981; Наркирьер Ф. Андре Моруа. – М., 1974; Борев Ю. Исскуства интерпретации и оценки. – М., 1981; Бахаров В.С. Литературный портреты. – Л.: Наука, 1985.

yashovchanlik kasb etishi iste’dod va salohiyat kabi masalalar o‘rganildi[9]. T.N.Arxangelskaya, B.A.Grifsov, L.P.Gromov, A.G.Kovalyov, B.Meylax, P.Medvedov, M.Xrapchenko, Yu.G.Nigmatullina, V.V.Novikov, E.Sh.Salimziyanova, R.Muzaffarov, N.M.Fortunatov, A.G.Seytlin, B.Sarimsoqov, M.Mahmudov, N.Rahimjonov, U.Jo‘raqulov, S.To‘laganova, K.Hamroyev, K.Kamolov, K.Mambetov, Z.Bekbergenova tadqiqotlarida ilhom, badiiy asar biografiyasi, biografik yondashuv, ijodkor laboratoriyasi, ijod psixologiyasi, badiiy mahorat sirlari, adabiy ta’sir, obraz va prototipning hayotiy asosi, ijod jarayonida iste’dodning roli, badiiy ijodni kompleks tarzda tadqiq qilish hamda prognozlash, adib ijod laboratoriyasini o‘rganishning ilmiy-nazariy qimmati kabi masalalar tadqiq etildi[10].

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotshunosligida ijod psixologiyasi, ijodiy laboratoriya va adabiy-estetik qarashlar uyg‘unligi masalalarining tadqiqiga ham e’tibor ortdi. M.Qo‘shjonov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, H.Boltaboyev, I.Haqqulov, Q.Qahramonov, Q.Yo‘ldoshev, D.Quronov, U.O‘ljaboyev, U.Jo‘raqulov, B.Karimov, I.Yoqubov, A.Ulug‘ov, M.Qo‘chqorova, D.Xoldorov, A.Xamroqulov kabi turli avlodga mansub adabiyotshunoslar ilmiy izlanishlarida mazkur masalaning u yoki bu qirrasi tadqiq etildi[11]. O.Muxtor, X.Do‘stmuhammad, G‘.Hotamov, U.Hamdam, Sh.Bo‘tayev,

---

[9] Цейтлин.А.Т. Труд писателя. – М., 1968; Медведов П. В лаборатории писателя. – М., 1971; Оклянский Ю. Рождение книги. – М., 1973; Мейлах Б. Талант писателя и творческие процессы. – М., 1969; Кузьминская Т.А. Воспоминания. – Тула, 1959; Леонов Л.М. Литература и время. – М., 1964; Грифцов Б.А. Как работал Бальзак – М., 1958; Храпченко М.Б.Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М., 1970; Храпченко М.Б. Лев Толстой как художник. – М., 1971; Толстой Л.Н. О литературе. – М., 1955.

[10] Архангельская Т.Н. В творческой лаборатории Л.Н. Толстого: Источники, прообраз и образ, литературные связи: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Орел, 2004; Грифцов Б.А. Как работал Бальзак. – М., 1958; Громов Л.П. В творческой лаборатории Чехова. – Ростов-на-Дону. 1963; Каххар А. Беседа с молодежью. – Ташкент, 1968; Ковалёв А.Г. Психология литературного творчества. – Л., 1960; Медведев П. В лаборатории писателя. – Л., 1960; Мейлах Б. Проблемы прогнозирования. – Казань, 1990; Новиков В.В. Творческая лаборатория Горького-драматурга. – М., 1976; Салимзянова Э.Ш. Творческая лаборатория Анвара Шарипова (особенности научного и литературного мастерства): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа, 2016; Фатхрахманов Р.Г. Творческая лаборатория прозаика (на материале произведений А. Еники, М.Магдеева, А. Гилязова, Н. Фаттаха и др.): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Казань, 1999; Фортунатов Н.М. Творческая лаборатория Л. Толстого: наблюдения и раздумья. – М., 1983; Храпченко М. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М., 1970; Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: Bookmany print, 2022. Маҳмудов М. Тақлид, тасвир, илҳом ва истеъдод // Шарқ юлдузи. 2014, № 3; Раҳимжонов Н. Бадиий асар биографияси. – Тошкент: Фан, 2008; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Тўлаганова С. Ижодкор шахсияти ва бадиий қаҳрамон муаммоси (Абдулла Қодирий ижоди мисолида). Филол.фан. д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2019; Ҳамроев К. Ҳикоя композицияси. –Тошкент: Nurafshon busness, 2020; Камалов К. У меня есть идеал // Амударья, 1999. № 2; Мамбетов К. Восемнадцать вопросов // Амударья, 1990. № 6; Мамбетов К. Как я стал писателем и литературоведом // Амударья, 2000. №3; Рахманов К. Вдохновение окрыляет человека // Амударья, 1999. №3; Сейтов Ш. Талант – это судьба // Амударья, 1989. №8; Бекбергенова З.У. Научно-теоретическое значение изучения творческой лаборатории писателя // The scientific heritage No 90 (2022) 79; Дилмуродова Н.А. Муаллиф шахсияти ва ижодий лаборатория уйғунлиги // Ilmiy tadqiqot va innovatsiya, 1, no. 1, July 31, 2022, – Б. 121-128.

[11] Қодирий А. Ижод машаққати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Шарафиддинов О. Чўлпон. – Тошкент: Чўлпон, 1991; Каримов Н. Чўлпон. Маърифий роман. – Тошкент: Шарқ, 2003; Қўшжонов. М. Ўзбекнинг ўзлиги. – Тошкент: Халқ мероси, 1994; Норматов У. Нафосат гурунглари. – Тошкент: Муҳаррир, 2010; Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007; Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001; Болтабоев Ҳ, Маҳмудов М. Адабий-эстетик тафаккур тарихи (1-жилд) – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2013; Ҳаққулов И. Ижод иқлими. – Тошкент: Фан, 2009; Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид: янгиланиш жараёнлари. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009; Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004; Ўлжабоев У. Замон талаби ва ижодкор масъуллиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2012; Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006; Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2018; Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. –

T.Rustam, N.Eshonqul nasri muammolari o‘rganilgan bir qator monografik tadqiqotlar yuzaga keldi[12]. “Ijod mashaqqati” nomli kitobda A.Qodiriyning badiiy ijod haqidagi qarashlari jamlandi. O‘.Nosirovning “Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi”, “Ijod mashaqqati”, H.Umurovning “Badiiy ijod asoslari” kabi risola va qo‘llanmalarida ham ijodkor shaxs, iste’dod, ijodiy jarayon, ijod psixologiyasiga oid muhim kuzatishlar aks etdi[13].

Ma’lumki, Asad Dilmurod o‘z ijodiy tajribalari va adabiy jarayonda kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarni sinchkov kuzatishlari asosida bir qator maqolalar yozdi. Yozuvchining “Tuyg‘u va tafakkur birlashadigan o‘zan”[14], “So‘z olami tovlanishlari”[15] nomli maqolalari fikrimizni dalillaydi. Adib hayotlik davrida ayrim adabiyotshunos olimlar bilan adabiy suhbatlar o‘tkazdi. Ular vaqtli matbuotda chop etildi. Mazkur muloqotlar endilikda yozuvchi ijod laboratoriyasiga kirib borishda muhim ochqich sifatida g‘oyat qimmatli manba vazifasini o‘taydi. Jumladan: Majoziylik va hissiy tafakkur (Ahmad Otaboy bilan suhbat)”[16], “Tarixiy me’yor va estetik mas’uliyat” (Dilnoza To‘rayeva bilan suhbat)[17]lar shu jihatdan e’tiborlidir.

Ta’kidlash o‘rinliki, Asad Dilmurod hayoti va ijodi haqida professor Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Xayolot va hayot manzaralari”[18], Mahkam Mahmudovning “Mahmud Torobiy – xalq xoloskori”[19], Islomjon Yoqubovning “Roman to‘qimasida analitik folklorizmlar”[20], “Tarixiy haqiqat va badiiy talqin”[21], “Marsel Prust va Asad Dilmurod

---

Тошкент: Фан ва технология, 2013; Қўчқорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011; Холдоров Д. Ижод моҳияти – услуб хосияти. Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017; Хамроқулов А. Ўзбек адабиётида Маҳмуд Торобий қўзғолонининг бадиий талқини. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009.

[12] Дўстмуҳамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1995; Сатторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси (Ғ.Ҳотам, Х.Дўстмуҳаммад, Н.Эшонқул ҳикоялари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002; Рустамова М. Истиқлол даври ўзбек қиссаларининг тараққиёт тенденциялари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2005; Матякупов С. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадиий талқини: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2006; Холдоров Д. Ҳозирги ўзбек қиссаларида бадиий услуб муаммоси (Шоим Бўтаев, Назар Эшонқул қиссалари мисолида): Филол. фан.б. фалс. док. дисс... – Тошкент, 2017; Раджапова Ф. Истиқлол даври ўзбек қиссачилигида услуб ва поэтик тил: Филол. фан. б. фалс. док дисс...автореф. – Тошкент, 2018; Пирназарова М. Ҳозирги ўзбек романларида услубий изланишлар (О.Мухтор, Х.Дўстмуҳаммад, У.Ҳамдам, Т.Рустам романлари мисолида): Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2006; Авезова Г. Роман композициясининг бадиий яхлитликда тутган ўрни (Х.Дўстмуҳаммаднинг “Бозор”, Т.Рустамовнинг “Капалаклар ўйини”, У.Ҳамдамнинг “Мувозанат” романлари мисолида): Филол. фан. номз...дисс. – Тошкент, 2012; Авезова Г. Роман композициясининг бадиий яхлитликда тутган ўрни (Х.Дўстмуҳаммаднинг “Бозор”, Т.Рустамовнинг “Капалаклар ўйини”, У.Ҳамдамнинг “Мувозанат” романлари мисолида): Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012; Бурханова Ф.А. Муаллиф адабий-эстетик қарашлари ва ижодий параллелизм. Филол.фан.б.фалс. док. дисс... – Тошкент, 2019.

[13] Қодирий А. Ижод машаққати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995; Носиров У. Ижодкор шахс, бадиий услуб, автор образи. – Тошкент: Фан, 1981. – 110 б; Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001.

[14] Дилмурод А. Туйғу ва тафаккур бирлашадиган ўзан // Ёшлик. 2010 йил, 10 (239)-сон.

[15] Дилмурод А. Сўз олами товланишлари // Зарафшон, 2007 йил 20 сентябрь.

[16] Дилмурод А. Мажозийлик ва ҳиссий тафаккур. (Аҳмад Отабой билан суҳбат) // ЎзАС, 2017 йил 22 сентябрь. 39 (4437)-сон.

[17] Дилмурод А. Тарихий меъёр ва эстетик масъулият (Дилноза Тўраева билан суҳбат) // Ижод олами. 2018 йил, 3-сон. (Дилноза Тўраева “Мезон буржи” қиссаси ҳамда “Паҳлавон Муҳаммад” романлари юзасидан ҳам адиб билан алоҳида-алоҳида суҳбатлар ўтказган. Д.Н.)

[18] Йўлдошев Қ. Хаёлот ва ҳаёт манзаралари // ЎзАС, 2017 йил 22 сентябрь. 39(4437)-сон.

[19] Маҳмудов М. Маҳмуд Торобий – халқ холоскори // Мулоқот. 2000. 6-сон. – Б. 51-52.

[20] Ёқубов И. Роман тўқимасида аналитик фольклоризмлар // Илм сарчашмалари. УрДУ Ахборотномаси. 2005, 1-сон. – Б. 37-38.

[21] Ёқубов И. Тарихий ҳақиқат ва бадиий талқин // Ўзбек тили ва адабиёти. 2008, 4-сон, –Б. 30-38.

ijodiy konsepsiyalari”[22], “Armonsiz kun suluvdir”[23] kabi maqolalari, “Badiiy matn va estetik talqin”[24] monografiyasi nashr etildi. Bizning vaqtli matbuotda chop etilgan maqolalarimizda ham ushbu mavzu muayyan darajada yoritilgan[25]. Bu kabi chiqishlar Asad Dilmurod ijodiy shaxsi va asarlari o‘zaro uyg‘unlikda tahlil va talqin etilgani, jahon adabiyoti namunalari bilan qiyoslangani bilan bir qatorda, yozuvchining nazariga tushgani, adib ular bilan tanishgani jihatidan ham qimmatlidir.

Ko‘rinadiki, Asad Dilmurod nasrida muallif shaxsiyati va ijodiy laboratoriya uyg‘unligi maxsus tadqiq qilinmagan. Ammo, mavjud tadqiqotlar ushbu muammoni o‘rganishda nazariy-metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan muassasa ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Jahon adabiyoti va qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasining “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Asad Dilmurod (1947-2019) nasriy merosini muallif shaxsiyati va ijodiy tutumi uyg‘unligi negizida ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Asad Dilmurod hayot va ijod yo‘li hamda adabiy-badiiy merosining ko‘lami, mavzular doirasi, poetik o‘ziga xosligi va adabiy jarayon taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash;

badiiy ijod psixologiyasi, qalb dialektikasi misolida adabiy an’ana, ichki ijodiy tadrij va ijodiy individuallik masalalarini ko‘rsatib berish;

adib nasriy merosini ijodiy niyat, estetik ideal, badiiy-estetik konsepsiya, epik bayon tarzi, xususan, kompozitsion parallelizm va badiiy shartlilik usullarini qo‘llash mahorati nuqtayi nazaridan yoritish;

Asad Dilmurod nasrida poetik tasvir usullarini o‘rganish. Poetik tasvirdagi real va noreal hayotning parallel ifodasi negizida badiiy ifoda rakurslarining turfalashuv jarayonlarini oydinlashtirish hamda yozuvchi romanlari badiiy to‘qimasidagi analitik folklorizmlarning funksiyalarini aniqlash.

---

[22] Yakubov I. Literariy-aesthetic conception of M. Purust and A. Dilmurod Przemyus’l Nauka I studia. 2013. – P. 29-32.

[23] Ёқубов И. Армонсиз кун сулувдир // ЎзАС. – 2016, 10 июнь.

[24] Ёқубов И. Бадиий матн ва эстетик талқин. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2013.

[25] Dilmurodova N.A. Adabiy matn – badiiy-estetik kommunikatsiya vositasi // TDPU Ilmiy axborotlari. – Toshkent, 2022. №10. – B. 163-167; Shu muallif: Badiiy ijod tabiati va ijodkor qalamining charxlanishi // O‘zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2024. №3. – B. 35-42; Shu muallif: Сўз бағридаги нажотбахш ёғду. Шарқ юлдузи. – Тошкент: 2024, №4. – B. 168-173; Shu muallif: Adabiy shaxsiyat, ijodiy tadrij va adabiy-tarixiy manba // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – Xiva. 2024, №10. – B. 62-65; Shu muallif: Asad Dilmurod nasrida tarixiy haqiqat va badiiy talqin. O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2024. №2. – B. 258-260; Shu muallif: Poetical expression of the essence of man and the universe in the prose of Asad Dilmurad // Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. ISSN: 2795-7683. Impact factor – 7.875. – Belgium, 2023. Volume. 19. April, Pages 43-48; Shu muallif: Biographical and comparative historical interpretation of Asad Dilmurod’s prose // International Journal of Literature and Languages. ISSN – 2771-2834. Impact factor – 6.997. 2024. USA. Volume. 04, Octaber. Pages. 53-59; Shu muallif: Asad Dilmurod estetik ideali // Science time Journal (Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari) – Nukus. 2023, may. – B. 69-76; Shu muallif: Asad Dilmurod estetikasining ayrim qirralari // “Sharq-u G‘arb adabiyotida gumanizm: Navoiy va Pushkin” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024, 25-aprel. – B. 655-666.

Tadqiqotning obyekti sifatida Asad Dilmurod nasriy asarlari tanlandi. Shuningdek, o‘rni bilan adibning ayrim maqolalari, esselari, adabiy suhbatlari, qo‘lyozmalari va zamondoshlari xotiralari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini XX–XXI asr o‘zbek nasrining taniqli vakillaridan biri – Asad Dilmurod ijodiy merosini muallif shaxsiyati va ijodiy tutum uyg‘unligi negizida ochib berish, adabiy izdoshlik, ijodiy o‘ziga xoslik, poetik ifoda rakurslari, ifoda uslubi, kompozitsion parallelizm, adabiy shartlanganlik singari masalalar tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada biografik, analitik, sotsiologik, germenevtik, tarixiy-qiyosiy hamda qiyosiy-tipologik tahlil usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Asad Dilmurod nasridagi shakliy-kompozitsion jihatlar va uslubiy individuallikni yuzaga chiqaruvchi tasvir vositalari, poetik usullar o‘ziga xosligi kabi masalalar o‘zbek hamda jahon adabiyotshunosligi nazariy tushuncha va tamoyillariga tayanilgan holda asoslangan;

adib nasriy merosida yangi tipdagi qahramonlar obrazi, xatti-harakatlar ichki dinamikasi, hayotiy materialni tanlash va uni badiiy ifodalashning o‘ziga xos usullari, badiiy tasvir va talqin poetikasidagi o‘zgarishlar ochib berilgan;

yozuvchi nasri mumtoz adabiy an’analar, zamonaviy realistik romanchilik tajribalari, modernistik uslublar, adabiy oqimlarga xos xususiyatlar, adabiy ta’sir va ijodiy individuallikning yagona ijodiy shaxsiyatdagi sintezi ekanligi dalillangan;

Asad Dilmurod asarlarida falsafiy mushohadaning teranlashuvi, intellektual romanlarga xos xususiyatlarning yorqin namoyon bo‘lishi, tasviriy ifodalarda ramziy-majoziylikning roli ortishi aniqlanib, bu tipdagi poetik tasvirlar yozuvchi badiiy-estetik konsepsiyasini belgilashda muhim jihat ekani dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Asad Dilmurod ijodiy biografiyasi, kamol topgan muhiti, ta’sirlangan manbalari bilan bog‘liq jihatlar yozuvchining milliy nasrimizdagi shakliy-uslubiy izlanishlari misolida an’ana, adabiy ta’sir, ichki ma’naviy-ruhiy ehtiyoj bilan bog‘lab, uzviylik hamda uzluksizlik konsepsiyasi negizida ochib berilgan;

badiiy ijod psixologiyasi, qalb dialektikasi misolida adabiy an’ana, ichki ijodiy tadrij va ijodiy individuallik masalalari haqidagi nazariy xulosalar ishlab chiqilgan;

yozuvchi nasriy merosi ijodiy niyat, estetik ideal, badiiy-estetik konsepsiya, epik bayon tarzi, xususan, kompozitsion parallelizm va badiiy shartlilik usullarini qo‘llash mahorati nuqtayi nazaridan o‘rganilib, yaxlit xulosaga kelingan;

Asad Dilmurod nasrida umummilliy muammolarning badiiy talqini, mulohaza va muhokamaga moyil yangi tipdagi qahramonlar obrazi va uslubiy individuallik masalalari dalillangan;

tadqiqot natijalari istiqbolda adabiyotshunoslik nazariyasi, yangi o‘zbek adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon fanlari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratish uchun muayyan zaxira bo‘lib xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlarni berishda ishonchli ilmiy manbalarga tayanilgani, qo‘yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilgani va vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, qardosh xalqlar hamda dunyo

adabiyotshunosligining yangi yo‘nalishlari va tahliliy usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Asad Dilmurod adabiy-badiiy merosining yozuvchi dunyoqarashi, badiiy niyati, estetik ideali, ijod laboratoriyasi, poetik ifoda rakurslari turfaligi nuqtayi nazaridan kompleks tadqiq etishga doir nazariy umumlashmalar, istiqlol davri nasrining taraqqiyot tamoyillarini belgilashga asos bo‘ladigan badiiy-estetik qonuniyatlar hamda poetik xususiyatlarni aniqlashga xizmat qilishi ishning ilmiy-nazariy ahamiyatini belgilashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati istiqlol davri o‘zbek nasri, xususan, Asad Dilmurod adabiy-badiiy merosini milliy-adabiy an’ana, qardosh va jahon xalqlari nasri bilan uyg‘unlikda, ijodkor shaxsiyati va ijod laboratoriyasi, ijodiy individuallik va poetik mahorat nuqtayi nazaridan o‘rganishda, oliy o‘quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari hamda akademik litseylarda mustaqillik davri o‘zbek nasri, ijodkor dunyoqarashi, adabiy-estetik konsepsiyasi, ijodiy merosi va ijod laboratoriyasini o‘zaro uyg‘unlikda hamda yaxlit adabiy jarayon kontekstida o‘rganish mavzulari bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar, maxsus kurs va seminarlar olib borishda, Asad Dilmurod nasri poetikasiga doir darslik, o‘quv qo‘llanmalari va majmualar tuzishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Zamonaviy o‘zbek nasrida ijodkor shaxsiyati va ijodiy tutum uyg‘unligi tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Asad Dilmurod nasridagi shakliy-kompozitsion jihatlar va uslubiy individuallikni yuzaga chiqaruvchi tasviriy vositalar, poetik usullar o‘ziga xosligi kabi masalalar o‘zbek hamda jahon adabiyotshunosligi nazariy tushuncha va tamoyillariga tayanilgan holda aniqlanganligiga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 25.03.24-yildagi 04/01-697-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘p jildlik monografiya jahon adabiyotshunosligida mavjud shakl va mazmun mutanosibligi, kompozitsion yaxlitlik, uslubiy o‘ziga xoslik, tasviriy vositalar rang-barangligi, poetik usullar sintezi singari nazariy tushuncha va tamoyillar hisobiga yanada boyitilgan.

Adib nasriy merosida yangi tipdagi qahramonlar obrazi, xatti-harakatlar ichki dinamikasi, hayotiy materialni tanlash va uni badiiy ifodalashning o‘ziga xos usullari, badiiy tasvir va talqin poetikasidagi o‘zgarishlar ochib berilganligiga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017–2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 – “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish” mavzusidagi fundamental loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 25.03.24-yildagi 04/01-697-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘p jildlik monografiya jahon adabiyotshunosligida mavjud yangi tipdagi qahramonlar obrazi va hatti-harakatlarining ichki rivoji, hayot haqiqati va individual badiiy talqin, ijodiy uslub, badiiy tasvir va talqin poetikasi singari nazariy tushuncha va tamoyillar hisobiga yanada boyitilgan.

Yozuvchi nasri mumtoz adabiy an’analar, zamonaviy realistik romanchilik tajribalari, modernistik uslublar, adabiy oqimlarga xos xususiyatlar, adabiy ta’sir va ijodiy individuallikning yagona ijodiy shaxsiyatdagi sintezi ekanligi dalillanganligiga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida davlat ilmiy-texnik dasturi doirasida 2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 “O‘zbekiston adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAUning 25.03.24-yildagi 04/01-698-son ma’lumotnomasi). Natijada, ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasi mumtoz adabiy an’ana va zamonaviy realistik romanchilik tajribalarini ijodiy o‘zlashtirish tamoyillari, modernistik uslublar, adabiy oqimlarga xos xususiyatlarni zamonaviy nasrda qo‘llash mahorati, adabiy ta’sir va ijodiy izdoshlik, ijodkor “meni” singari yangicha qarashlar bilan yanada boyitilgan.

Asad Dilmurod asarlarida falsafiy mushohadaning teranlashuvi, intellektual romanlarga xos xususiyatlarning yorqin namoyon bo‘lishi, tasviriy ifodalarda ramziy-majoziylikning roli ortishi aniqlanib, bu tipdagi poetik tasvirlar yozuvchi badiiy-estetik konsepsiyasini belgilashda muhim jihat ekani dalillangani bilan bog‘liq o‘rinlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat muassasasining “Bir asar tarixi” va “Qismat” ko‘rsatuvlar ssenariysini tayyorlashda ijodiy foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali davlat muassasasining 09.10.24-yildagi 01-44-288-son ma’lumotnomasi). Natijada, mazkur ko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni falsafiy jihatdan teranlashgan, intellektual romanlarga xos xususiyatlar: yozuvchi badiiy-estetik konsepsiyasi, ramziy-majoziy mazmun va badiiy ifoda serqatlamligi, poetik ifoda rakurslari kabi nazariy tushunchalar hisobiga mukammallashib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishi ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish nashr qilingan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 11 ta, jumladan, xorijiy jurnallarda 4 ta, respublika jurnallarida 7 ta maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tarkib topgan bo‘lib, umumiy hajmi 140 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati yoritilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, maqsadi hamda vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati

asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Shaxsiyat va hayot yo‘li – yozuvchi ijodiy yo‘nalishi asosi”** deb nomlanadi. Ushbu bobning ***“Adib shaxsiyati va biografiyasining o‘ziga xosligi”*** nomli 1.1 §da bo‘lg‘usi adibning tug‘ilishi, ulg‘ayishi, ko‘ngli nozik, fikri o‘tkir, tuyg‘ulari yuksak inson sifatida kamol topishiga ta’sir etgan oilaviy, hayotiy, adabiy-estetik omillar va yozuvchi ijodiy biografiyasi yoritilgan[26].

Asad Dilmurodning yozuvchi sifatida kamol topishida oilaviy muhitning va u tug‘ilib o‘sgan makon tabiatining ta’siri kuchli bo‘lgan.

Asad Dilmurod maktabni tugatgach, tirikchilik ilinjida boshi bilan sho‘ng‘igan qaynoq hayotning g‘oyat mashaqqatli damlari uning sabr-bardoshi-yu irodasini sinovdan o‘tkazdi. Orzu-umidlariga qanot berdi. U o‘zining ilk ijodiy mehnat faoliyatini talabalik davri – 1966-yildan e’tiboran “Urgut sadosi” tuman gazetasidan boshladi. 1970-yillarda Samarqand viloyati “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalarida faoliyat yuritdi. Bu dargohda u matritsa olish va gazeta bosish uchun tonggacha navbat kutish mashaqqatlarida toblandi.

Asad Dilmurod publitsistika va badiiy ijodni o‘zaro qiyoslar ekan, keyingisiga nisbatan ko‘proq haq beradi va badiiy publitsistikaning quyidagi belgi-sifatlarini ma’qullaydi: a) voqelikka faol aralashish; b) faktlarga tayanish; d) fikrlarni mantiqiy dalillash; e) obrazli umumlashtira olish; f) adabiy ijod ekani; g) o‘quvchilarda ijtimoiy fikr uyg‘otib, muayyan qarashlarni shakllantirishi; h) oshkoralik va dadillikni yoqtirishi.

Adib badiiy ijodni ushbu fazilatlari uchun ardoqlaydi: a) an’anaviy nasrda sabab va oqibat mantig‘iga qat’iy amal qilinishi; b) modern va postmodern nasr mantiqiy qoliplarga sig‘masligi; d) yangi nasr insonning ko‘ngil iqlimini badiiy kashf etishi; e) inson ruhiyatiga xos dramatizmni psixologik taftish etishi; f) real olamdagi voqelik emas, balki obrazlar botinida kechgan “tarix”ni ifodalashga qulayligi; g) ramz va majozlar tilida so‘zlashi; h) ishoraviylikning kuchliligi.

Yuqoridagi kabi qiyoslar Asad Dilmurodning bir umr gazetaga bog‘lanib, noyob iste’dod va salohiyatni trafaret mavzularni yoritishga sarflash uslubni siyqalashtirish, iste’dodni sustlashtirish, deb bilganini ko‘rsatishi jihatidan ahamiyatlidir. Darhaqiqat, Asad Dilmurod badiiy ijodni san’at hodisasi sifatida g‘oyatda chuqur anglagani, o‘z iqtidori-yu salohiyatini adabiyot va san’atga baxsh etishga uzil-kesil qaror qilgani bois, bir paytlar o‘zi orzulagan Samarqand viloyat gazetasidan uzoqlashib, Toshkent ilmiy-adabiy muhitiga yaqinlashgan. U “Zarafshon” gazetasida ishlab yurgani kezlari bosh muharrir Ahmadjon Muxtorov tavsiyasiga ko‘ra, “Samarqandni olam biladi”, – degan ruknga rahbarlik qilgan. Bunday xayrli intilishlar samarasi o‘laroq, uning bir qator turkum maqola va esselari yuzaga kelgan. “Sherdor” hikoyasi yozilib, “Yoshlik” jurnalida bosilgan. Bu hikoya Zulfiya hamda Erkin Vohidov tomonidan

[26] Otamlar oilada uch nafar o‘g‘il (Asatillo, Ismatillo, Ne’matillo) va ikki nafar qiz (Musallam, Anora) jami besh nafar farzand bo‘lishgan. Otam va amakilarim vafot etishgan. Hozirda ikki nafar ammam hayotlar.
Biz ikki nafar o‘g‘il (Husan, Tohir) va uch nafar qiz (Gulnora, Fotima, Nilufar) jami besh nafar farzand ota-onamiz quchog‘ida ulg‘aydik. Men farzandlarining kenjasiman. 2019-yil 29-yanvarda 72 yashar otam, oradan bir yilcha o‘tib-o‘tmay, 47-48 yashar akalarim olamdan o‘tishgan. Hozirda onam - Mavjuda aya (73 yoshda), Gulnora va Fotima opalarim hayotlar. (N.D.)

ijobiy baholangan. Bundan ruhlangan adib shu hikoya negizida “Sherdor” nomli qissa yozgan. Birin-ketin “Afrosiyob sukunati”, “Koshin” singari tarixiy mavzudagi hikoyalari yuzaga kelgan. Umuman, “Zarafshon” gazetasidagi 1969–1980-yillardagi faoliyati davomida Asad Dilmurodning qalami charxlangan.

Ta’kidlash o‘rinliki, u Toshkentda ham matbuotdan butkul uzoqlashib ketmagan va badiiy ijod bilan faol shug‘ullangan. Bu davrda adibning ko‘pgina qissa va romanlari yozilgan va kitobxonlar qo‘liga tekkan. Ayrim asarlari rus, ukrain, qozoq, tojik, turk, uyg‘ur tillariga tarjima qilingan. “Devona” nomli adabiy ssenariysi asosida badiiy film tasvirga olingan (2003).

Bobning 1.2 §i ***“Yozuvchi ijodining biografik va qiyosiy-tarixiy talqini”*** deb nomlangan. Bu paragrafda yozuvchi ijod namunalarining yuzaga kelish va sayqallanish jarayonlari, badiiy konsepsiyasining qat’iylashib, takomillashib borish jarayonlari “So‘nggi o‘q” hamda “Og‘ir kun” hikoyalarining tahlili hamda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik tadqiqi orqali oydinlashtirilgan. Zarur o‘rinlarda adibning ijodkor do‘sti, ayrim asarlari ilk kitobxoni va “tanqidchi”si – jurnalist va shoira Mavluda Mirsaidovaning “Shabnamdek beg‘ubor do‘stlarim”[27] nomli salmoqli maqolasiga ham murojaat qilingan. Shu orqali A.Dilmurod ijodining hikoyani qayta ishlash, tendensioz qarashlarga ergashishdan qutulib, badiiy konsepsiyani mukammallashtirish, qahramonlar qismatini tabiiy o‘zanida davom qildirish sirlarini egallashdagi ichki tadriji ko‘rsatilgan.

Darhaqiqat, Asad Dilmurod “So‘nggi o‘q” hikoyasining sarlavhasini “Og‘ir kun” tarzida o‘zgartiribgina qolmay, personajlar taqdirining badiiy talqinlarini ham qayta ishlagan. Jumladan, “Og‘ir kun” hikoyasi ikkinchi jahon urushi janggohlarida bir oyog‘idan ajrab kelib, jamoa xo‘jaligida sidqidildan mehnat qilayotgan fidoyi inson – Shokir cho‘loqning yakka-yu yolg‘iz qizini otib tashlashi voqeasi asosiga qurilgan. E’tibor berilsa, “So‘nggi o‘q” hikoyasi syujetining asosiy nuqtalari: ota + yolg‘iz qiz + sodir etilgan mudhish fojia to‘la saqlab qolingan. Biroq, endilikda ota xoin bo‘lmaganidek, qiz ham sotqin emas. Hikoya qahramoni Shokir cho‘loq yolg‘iz qizi Mohiraga qarata o‘q uzib, uning hayotiga zomin bo‘ladi.

Demak, Asad Dilmurod yurtimizdan juda olisda – Rossiyada bo‘layotgan mash’um urushning front ortidagi yurtdoshlarimiz hayotiga ta’siri, ularning og‘ir, mashaqqatli mehnati, och-yupun maishiy turmushi tasvirlarini g‘oyat ta’sirchan chizadi. Shokir cho‘loq fojiasini ham aynan shu planda ochadi.

Dissertatsiyada o‘z farzandlariga qarata o‘q uzgan va aksariyat hollarda ularning qotiliga aylangan otalar obrazi tasvirlangan o‘zbek va jahon adabiyotining atoqli vakillari: fransuz adibi Prosper Merimening “Mateo Falkone” novellasi, rus adibi Nikolay Gogolning “Taras Bulba” qissasi, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi asarlari qiyosiy-tipologik tahlilga tortilgan. Tahlillar natijasida kelib chiqadigan fikr-mulohazalar nazariy jihatdan umumlashtirilgan. Jumladan, Asad Dilmurod “So‘nggi o‘q” hikoyasini “Og‘ir kun” nomi bilan qayta ishlash asnosida katta badiiy-estetik effektga erishgan. Bu hol urush odamining ruhiy psixologik kredosini ko‘rsatish, xalqimizning front ortidagi og‘ir va mashaqqatli turmushini realistik tasvirlash,

[27] Мирсаидова М. Шабнамдек беғубор дўстларим // Ургут садоси. 2019 йил, 23 май, 1-, 15-, 22- июнь.

milliy-mental tabiatga ega qahramonlar xarakterini turli rakurslardan ochishda yaqqol namoyon bo‘lgani aniqlangan.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Asad Dilmurod tiynatidagi bolalikka xos romantika adibning ertag-u afsonalarga xos mahzun va umidvor ruh mujassam “Toshburgut” (1979) nomli ilk qissasiga ham ko‘chib o‘tgan. Bobda bu asarlar ham keng tahlilga tortilgan. Yozuvchining “Sirli zina”, “Toshburgut” qissalari, shuningdek, “Non hidi”, “Afrosiyob sukunati”, “Baxt tuhfasi”, “Lolalar kulganda” kabi hikoyalari yozuvchi va tarjimon Emil Amit (1938-2002) tomonidan rus tiliga o‘girilgan[28]. Natijada, qissa rusiyzabon kitobxonlarning ham e’tiborini tortgan.

“Muallif insoniy xususiyatlarining badiiy asarlarida namoyon bo‘lishi” nomli ikkinchi bob ikki paragrafdan tarkib topgan. Bobning ***“Asad Dilmurod shaxsiyati va badiiy merosining “ochqich”lari”*** nomli 2.1 §da adib iqtidorining tabiati, ko‘lamli fikrlashga moyilligi, ijtimoiy hodisalar va olis-u yaqin tarixiy voqelik hamda ulug‘vor tarixiy shaxslar obrazini ifodalashga bo‘lgan qiziqishlari, ustozlari, ta’sirlangan manbalari asosida Asad Dilmurodning ijodiy shaxsiyati, badiiy merosining tayanch manbalari aniqlangan. Badiiy nasrda inson ruhiy olami va ijtimoiy hayot muammolarini poetik tadqiq etish uslubi va mahorati ko‘rsatilgan.

“Osmonning bir parchasi”[29] hikoyasi bo‘lg‘usi adibning nasrdagi ilk qadami sifatida yuzaga kelgan. Yozuvchi hikoya qahramoni Donishni tabiatning rang va ohanglar dunyosiga oshno, hatto olamga taralayotgan iforlar ta’sirida gullarning rang-tusini bilib oladigan inson sifatida tasvirlaydi. Asad Dilmurodning tabiatan kayfiyat va ko‘ngil odami ekani, umumning nazariga tushmagan, ammo bir dunyo orzu-havaslar quchog‘ida yashovchi, qalbini jarohatlab qo‘yish juda oson bo‘lgan bir yigit obrazi misolida odamning zohiran eng kichik (mikrokosmos) tuyulgani ham benihoya ulkan bir olam, uning ham o‘z dunyosi (makrokosmosi), o‘z osmoni borligiga e’tibor qaratadi. Bu hol keyinchalik adib badiiy ijodining qon tomiriga aylangan adabiy-estetik tamoyillarni ham belgilab berdi. Asad Dilmurodning nasrdagi ilk mashqlaridan biri bo‘lgan “Xarsang”[30] hikoyasida: “*Agar insonni shajaraviy rishtalar chambarchas bog‘lab turmasa, qalbida ona zaminning har bir unsuri, har bir zarrasiga mehr-muhabbat jo‘sh urmasa, uning hayoti muayyan ma’no va mazmun kasb etmaydi”,* – degan g‘oya badiiy tahlil etilgan edi. Dissertatsiyada ulug‘vor fikr-tuyg‘ular yozuvchiga bir umr hamrohlik qilganini ko‘rsatish maqsadida adibning “Sherdor”, “Girih” singari qissalarida tasvirlangan naqshinkor chiziqlardan tortib, “Rang va mehvar” romanigacha kuzatilib, Asad Dilmurodning rang va ohanglar musavviri, ular bag‘ridan ilohiy bir mohiyat izlagan adib ekani ishonchli dalillangan. Darhaqiqat, adib o‘zining “Zarradagi olam” nomli so‘nggi eng kichik bir zarrada olam yaralishidan to hozirgacha bo‘lgan davrlarning mazmuni, mantig‘i va mohiyatini ko‘rdi. Bu hol Asad Dilmurod nasrining muttasil ichki tadrijiy takomil og‘ushida bo‘lganidan guvohlik beradi.

---

[28] Дильмурадов А. Каменный сокол. Повести и рассказы. Перевод с узбекского Эмиля Амита. – М.: Молодая гвардия, 1987. – С. 436.

[29] Дилмурод А. Осмоннинг бир парчаси. Ҳикоя. Асад Дилмурод. Осмоннинг бир парчаси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1978. – Б. 22–32.

[30] Дилмурод А. Харсанг. Ҳикоя. Асад Дилмурод. Осмоннинг бир парчаси. – Тошкент: Ёш гвардия, 1978. – Б. 32–45.

Yozuvchi zamon va zamondoshlar, tarix va tarixiy shaxslar, tabiat, jamiyat va inson haqidagi o‘z subyektiv qarashlarini esse[31] janrida ifoda etdi. Natijada, adibning “Bronza bo‘ri”, “Alanquva afsonasi”, “Afrosiyob”, “Pahlavon Muhammad”, “Yalangto‘shbiy bahodir”, “Po‘lkan haqida qo‘shiq”, “E’tiqod javhari”, “Olis vodiy tulporlari”, “Olloyoron kabi yuksal, Urgutim!”, “Bo‘sag‘a” kabi esselari yuzaga keldi. Bu esselar hajman uncha katta bo‘lmasa-da, ularning har biri o‘z erkin kompozitsiyasiga ega. Tadqiqotda A.Dilmurod qalamiga mansub esselar mavzu xarakteriga ko‘ra, shartli ravishda: a) adabiy-estetik; b) tarixiy-biografik; d) publitsistik; e) ilmiy-ommabop; f) sof belletristik tarzida tasnif qilib o‘rganilgan.

Yozuvchi esselari usluban obrazli tushuncha, aforizm, badiiy tasvir va ifodalarga boy. Ular mazmunan muallifning individual kuzatish, taassurot va mulohazalari hamda mantiqiy xulosalaridan iborat. Bu esselar ko‘pincha muayyan masalaga bag‘ishlanadi. Asad Dilmurod tafsilotlarni aniq bir mavzu doirasida bayon qiladi. Bu jihat adib esselariga falsafiy mulohazakorlik xususiyatini olib kiradi. Adib o‘z argumentlarini asoslab ko‘rsatadi. Ammo muammoning uzil-kesil yechimini taqdim qilishga, ya’ni ilmiy akademizmga da’vo qilmaydi.

Masalan, “Bronza bo‘ri”[32] essesi Sharq tarixiy rivoyatlari, homiy Ona bo‘ri kulti haqidagi inonchlar hamda Yunon mifologiyasi, xususan, “Romul va Rem” afsonasi va haykaltaroshlik san’atidan ilhomlanib yozilgan. Ushbu esseda afsona va tarixiy haqiqatning nisbati tahlilga tortilgan. Essenavist ko‘hna dunyoni: ezgulik – yovuzlik; rost – yolg‘on; quvonch – qayg‘u kabi dualistik tushunchalar orqali anglaydi. Uning fikricha, bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ushbu tushunchalar, ya’ni: olis kechmish + bugun + kelajak uchligida ibratli hikmatlar mujassam. Shu bois, ularning biri orqali ikkinchisining mazmun-mohiyati anglashiladi. Kelajak esa, o‘tmish va bugunga uzviy bog‘liq tarzda tug‘iladi. Tadqiqotda mazkur esse jahon adabiyotida Ona bo‘ri mavzusi aks etgan qator asarlar: Ch.Aytmatovning “Qiyomat”, H.Hessening “Cho‘l bo‘risi”[33] romanlari, O‘tamish Hojining “Chingiznoma”[34], turkiy tafakkur hosilasi bo‘lgan “O‘g‘uznoma” dostonlari[35] bilan mushtarakliklar imkon qadar qiyosiy tadqiq etilgan. Natijada, ijod onlarida Asad Dilmurod o‘y-xayollarini band etgan, o‘z xarakteriga ko‘ra ijtimoiy-psixologik mohiyatga ega bo‘lgan muhokama-mulohazalar, ruhiyatidagi ikki qutb (bo‘ri va odam N.D.)ning ayovsiz munozarasi, xususan, ezgulik va razolat kurashi haqidagi tarixiy-falsafiy qarashlar aniqlangan.

Anglashiladiki, A.Dilmurod tarixiy-adabiy manbalar, adabiyot va san’at asarlari tarixini har jihatdan teran o‘rganib, ilohiy qudrat, ilohiy shafoat va muruvvat timsoli bo‘lgan mehribon va mushfiq Ona Ko‘kbo‘ri timsoli Sharq-u G‘arb uchun birday qadrli bo‘lgan homiy obraz ekanini ko‘rsatib bergan.

---

[31] Бахтин М.М. Автор и герой в эстетической деятельности // Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Искусство, 1986; Бочаров А.Г. Жанры литературно-художественной критики. – М.: МГУ, 1982; Эпштейн М. Парадоксы новизны. – М.: Прогресс, 1987.

[32] Дилмурод А. Бронза бўри // Асад Дилмурод. Хилват ёхуд бронза бўри. Ҳикоя ва эсселар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 352–369.

[33] Ҳессе Ҳерман. Чўл бўриси. Мирзаали Акбаров таржимаси. – Тошкент: Файласуфлар, 2015. – Б. 248.

[34] Togan Z.V. Turkistan Tarihi, Istanbul, 1947; Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Ж. 9. – Тошкент, 2005; Бартольд В. В. Отчет о командировке в Туркестан, Соч., Т. 8, – М., 1973; Чингизнаме (факсимиле, перевод, транскрипция, текстологические примечания, исследование В. П. Юдина), – Алма-Ата, 1992.

[35] Шербак А.М. Огузнаме. Мухаббатнаме. – Л., 1959; “Ўғузнома” (ёки хоқон ҳақида достон) Н.Раҳмонов ҳозирги ўзбек тилига ўгирган // Шарқ юлдузи, 1989, 4-сон, – Б. 165–171.

Dissertatsiyada A.Dilmurodning “Yarog‘dagi bitik”[36] hikoyasi va “Mahmud Torobiy” romani o‘zaro qiyoslanib, yozuvchi ijodining ichki tadriji va badiiy-estetik maqsadining ko‘lamdorligi ko‘rsatilgan. Uning Oybek, M.Osim kabi bu mavzuga qo‘l urgan ustozlar tajribasini ijodiy o‘zlashtirish uslubi, mavjud badiiy talqinlarni takrorlamay, ijodiy individuallikka erishish mahorati oydinlashtirilgan. “Pahlavon Muhammad” essesi[37] va shu nomdagi romani hamda ularni yozishda tarixiy-adabiy asos sifatida tayanilgan “Holoti Pahlavon Muhammad” risolasi o‘rganilib, A.Dilmurodning esse va romanda tasvirlangan davr ijtimoiy-madaniy hayoti, xalq turmush tarzi, ulug‘vor tarixiy siymolar obrazining ma’naviy-ruhiy olamini badiiy idrok etish, xolis va haqqoniy poetik ifodalash imkonini mislsiz kengaytirishdagi roli ishonchli dalillangan. Ayni paytda, yozuvchining “Alanquva” hikoyasidagi bokira ayol obrazi “Mahmud Torobiy” romaniga ham singdirilgani, roman nashridan so‘ng, adib bu mavzuni esse janrida yana davom qildirib, romanda yo‘l qo‘ygan ayrim nuqsonlarini to‘g‘rilagani asoslangan. Buning uchun tadqiqotda Hofiz Tanish Buxoriy[38], Mirzo Ulug‘bek[39], Abulg‘oziy Bahodirxon, Rashiduddin Fazlulloh, Sharafuddin Ali Yazdiy[40], Mirxond[41] kabi ijodkorlar asarlari bilan imkon qadar qiyosiy tahlilga jalb qilingan. O‘z-o‘zini, adabiy-estetik qarashlarini va badiiy ifoda yo‘sinida yo‘l qo‘ygan ayrim xatolarini shafqatsiz taftish etish A.Dilmurodning ilmiy-ijodiy jasoratidan tashqari keng dunyoqarashi, oqko‘ngil, samimiy va bag‘rikeng inson ekanini ko‘rsatishi bilan ham ahamiyatli ekaniga e’tibor qaratilgan.

Bobning 2.2 §da ***“Yozuvchi estetikasining ayrim qirralari”*** deb ataladi. Bu paragrafda Asad Dilmurodning o‘z ijodiy tajribalari va adabiy jarayonda kechayotgan o‘zgarish va yangilanishlarni sinchkov kuzatishlari asosida yozgan “Tuyg‘u va tafakkur birlashadigan o‘zan”[42], “So‘z olami tovlanishlari”[43] nomli maqolalari tahlilga tortilgan. Estetik tafakkuri va badiiy nasridagi mushtaraklik asoslangan.

Adibning “Tuyg‘u va tafakkur birlashadigan o‘zan” nomli maqolasi “Yoshlik” jurnalida chop etilgan[44]. Yozuvchi jurnal xarakteridan kelib chiqib, so‘zni uning sahifalarida “Sherdor” nomli ilk tarixiy hikoyasi chop etilgan yillarning nurli xotiralari bilan boshlagan. Bu hikoya asosida adib keyinchalik shu nomdagi salmoqli tarixiy qissasini yozgan[45].

Shu jarayonlarni xotirlagan adib yuqorida eslatilgan maqolasida: *“Sevimli “Yoshlik” kamina uchun, ayniqsa, e’zozli, negaki, orzu-havasga lim-lim bo‘lgan o‘t-olov davrim, ayni paytda, ilk ijodiy urinishlarimni doim yodimga solib turadi. Jurnal dastlabki tarixiy hikoyam “Sherdor”ni jamoatchilik e’tiboriga havola etganda*

---

[36] Дилмурод А. Яроғдаги битик. Ҳикоя. Асад Дилмурод. Хилват ёхуд бронза бўри. Ҳикоя ва эсселар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 30–53.

[37] Дилмурод А. Паҳлавон Муҳаммад. Эссе. Хилват ёхуд бронза бўри. Ҳикоя ва эсселар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – Б. 400–430.

[38] Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома (“Шарафномайи шоҳий”). Биринчи китоб. Форсчадан С.Мирзаев таржимаси – Тошкент: Шарқ, 1999

[39] Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Таржимонлар: Б.Аҳмедов, М.Ҳасаний ва Н.Норқуловлар. – Тошкент: Чўлпон, 1994.

[40] Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. Таржимон: Омонулла Бўриев. – Тошкент: Камалак, 1994.

[41] Маънавият юлдузлари. Тўпловчи ва масъул муҳаррир М. Хайруллаев. – Тошкент: Халқ мероси, 2001.

[42] Дилмурод А. Туйғу ва тафаккур бирлашадиган ўзан // Ёшлик, 2010 йил, 10 (239)- сон.

[43] Дилмурод А. Сўз олами товланишлари // Зарафшон. 2007 йил, 20 сентябрь.

[44] Дилмурод А. Туйғу ва тафаккур бирлашадиган ўзан // Ёшлик, 2010 йил, 10 (239)-сон.

[45] Дилмурод А. Шердор. Тарихий қисса. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – Б. 176.

qanchalar ruhlangan edim, shundan keyin necha-necha yuz yillar naridan bugunga nigoh qadagan moziyga butunlay bog‘langan bo‘lsam, ajab emas’[46], – deya e’tirof etgandi.

Asad Dilmurod o‘z yoshligini “*orzu-havasga lim-lim bo‘lgan o‘t-olov davrim*” deb eslaydi. “Sherdor” tarixiy hikoyasini “*ilk ijodiy urinishlarim*” deb baholaydi. Uning uchun badiiy adabiyot: a) bitmas-tuganmas noyob xazina, tengi yo‘q mo‘jizalar mo‘jizasi; b) bu haqiqatdan yoshlikdayoq voqif bo‘lish va so‘z san’atiga bo‘lgan mehrni dilga joylay olish chinakam baxtdir.

Zohiran qaralsa, Asad Dilmurod an’anaviy realistik hikoyalash yo‘sinida yozgan “Mahmud Torobiy” va “Pahlavon Muhammad” romanlaridan so‘ng modern va postmodern ifoda uslubiga o‘tgandek tuyuladi. Ammo adib yuqorida ta’kidlaganidek, bu fazilat uning tiynatida bolaligidanoq bo‘lgan. Ya’ni, xayol parvozlaridan ma’naviy lazzat tuyish, hayratlarini borliqning eng kichik detallaridan olish va ulardan ramziy-majoziy ma’no-mazmun izlash, kayfiyat-hollari tez-tez o‘zgarib, turlanib-tuslanib turishi kabi jihatlar yozuvchi bu fe’lni “yo‘rgakda yuqtirgan”ligini dalillaydi. Shunday ekan, hatto an’anaviy sanaluvchi asarlarida ham yuqoridagi belgilar muayyan darajada aks etganidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Adib ijodida tarix bilan zamon ruhi o‘zaro sintezlashib, o‘ziga xos badiiy manzarani namoyon qiladi. Darhaqiqat, uning “Non”, “Og‘ir kun”, “Hukm”, “Xufton”, “Xarsang” kabi hikoyalari, “Toshburgut” va “Sirli zina” kabi qissalari shakli va mazmunida shunday holat kuzatilgan edi.

Adib uslubi an’anaviy va noan’anaviy realizm uchun xos estetik unsurlar vositasida shakllangan. Tajriba to‘plash va izlanish jarayonida “Oq ajdar sayyorasi” (1995-1996) qissasi, “Alanquva” (2007), “Xayol cho‘g‘lanishi” (2010), “Qo‘ng‘iroq” (2013). “Narvon” (2014), “Masofa” (2016), “Oqbadan parivash nigohi” (2017) kabi yangicha yo‘ldagi hikoyalari tug‘ilgan. Ularning syujet chizig‘ida sirli xayolot jozibasi bevosita faol ishtirok etadi, inson botini va zuhuri fantaziya sehri ko‘magida chuqur tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Ushbu bobda yozuvchining “Qo‘ng‘iroq”, “Narvon”, “Xilvat” hikoyalari, “Mezon burji”, “Sherdor” qissalari o‘rganilgan. “Girih” qissasida majoziy obraz darajasiga ko‘tarilgan qadimiy naqsh – girih “Fano dashtidagi qush” romanida uslubiy belgi sifatida yaxlitlashgan. Muhimi, bu asarlarda adib qalbidagi bunyodkorlik zavqi, ezgulik sog‘inchi, nafosat ehtiromi va g‘ayrati, ertadan umidvorlik tuyg‘ulari, falsafiy mushohadalar mujassamlashgan. “Mulk”, “Girih”, “Intiho” qissalarida ma’rifat va jaholat o‘rtasidagi kurash yaqin o‘tmish hayoti misolida badiiy-falsafiy tahlil etilgan. Tarixiy o‘tmish va madaniy merosga milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan qaralib, zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishi johillik sifatida baholangan. “Pahlavon Muhammad” romanida bosh qahramon siymosi badiiy talqini orqali donishmand, oqko‘ngil, e’tiqodi butun va irodali alloma g‘oyalarining insonparvarlik mohiyati mufassal ko‘rsatilgan. Umuman aytganda, Asad Dilmurod yaratgan Mulla Abdujabbor, Mahammad Avaz, Nazokatbonu, Mohbonu (“Sherdor”); Shamsiddin Mahbubiy, Mahmud Torobiy, Subuha, Muhiddin Kamol, Suyguna Zebo (“Mahmud Torobiy”); Yodgor valiy, Saidbek Umar, Mohina,

[46] Дилмурод А. Туйғу ва тафаккур бирлашадиган ўзан // Ёшлик. 2010 йил, 10 (239)-сон. – Б. 2-5.

Hazora momo, Ena Ko‘kbo‘ri, Chaqaloq (“Fano dashtidagi qush”); Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Sayid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad, Darvesh Muhammad (“Pahlavon Muhammad”) singari obrazlar xarakteriga xos fazilatlar, ular ruhiyatida hayotiy ziddiyatlar bilan uyg‘unlikda kechadigan tebranishlar muhim estetik ahamiyat kasb etadi va kitobxonni maftun eta oladi.

Dissertatsiyaning so‘nggi bobi **“Romaniy tafakkur: mushtaraklik va o‘ziga xoslik”** deb nomlanadi. Ushbu bobning ***“Rang va mehvar” romanida yozuvchi adabiy-estetik konsepsiyasi”*** nomli 3.1 §da romanning badiiy konseptualligini ta’minlagan adabiy-estetik omillar tadqiq etilgan. Romanda adib obrazli va his-tuyg‘uga to‘yingan, shuningdek, mantiqiy dalillangan xotiraga tayangani dalillangan. Zotan, ijodkor insonning nafaqat xayoli, balki xotirasi ham ruhiy jarayondir.

“Rang va mehvar” romani qahramoni – Komron Valining ruhiy faoliyati ijodiy ishga qaratilgan. Shuning uchun uning xotirasi ixtiyorsiz ixtiyoriylik asosida kechadi. Roman qahramoni “Toshqin” nomli turkum suratlar ustida ishlayotgani uchun ruhiy faoliyat ham davomiylikda namoyon bo‘ladi. Qaysidir ma’noda, buni fenomenal kasbiy xotira deyish ham mumkin. Shuning uchun asarda aksariyat ruhiy ta’sirlar ijodiy qayta ishlangan.

Dissertatsiyada ushbu roman talay jihatlari bilan jahon adabiyoti va san’atida kechayotgan “ong oqimi”ga asoslangan ijodiy izlanish jarayonlari, yangilanayotgan milliy romaniy tafakkurimizdagi evrilishlarga hamohang ekani ko‘rsatilgan. Romanda adibning insonga yuksak qadriyat deb qarash, psixologik portret yaratish, hayot mohiyatini samimiy ifoda etish hollari yorqin namoyon bo‘lgani, badiiy uslubning yangi shakllari faol qo‘llanilgani dalillangan. Darhaqiqat, yozuvchi asarda inson ongi bir necha qatlamlarini anglashga va ifoda rakurslari turfaligida ishonarli ko‘rsatishga intilgan.

Asad Dilmurod san’at konsepsiyasi negizida insonning taqdir oldida ojizligi, nafs o‘pqoniga botgan kimsalar qalbini isloh qilish Yaratuvchi hukmida ekanligi e’tirofi aks etgan. Yozuvchi badiiy hukmi Nosir va To‘ra Oxun, Tarvuz domla, Azlar Niyoz, Zokir G‘iyosiy kabi ichki “meni” tavallud topmagan, o‘y-fikrdan begona, loqayd odamlar ustidan chiqarilgan. Insoniyat taqdiriga daxl qilish bandaning ishi emasligi uqtirilgan. Odamzotni besamar maqsad sari yetaklagan sho‘rolar tuzumi va uning malaylari ayovsiz fosh etilgan. Roman ularning kirdikorlarini fosh qiluvchi ilmoqli ishora-yu hajviyot-la ziynatlangan.

Insoniy iztiroblarni butun qalbi va vujudi bilan his etgan A.Dilmurod roman badiiy matniga mifologik qarashlar, afsona va rivoyatlar, shuningdek, san’atning rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika yo‘nalishlariga xos yutuqlar, kubizm, neoklassika an’analari, syurrealizm va abstrakt san’atga xos nursoya vositasida odamlar chehrasini jonlantirib, ularning ichki dunyosi – nozik ko‘ngil holatini ifodalash usullarini mohirona tarzda singdirgani adabiy ta’sir va milliy asosda ijodiy o‘zlashtirish aspektida asoslangan. Zamonaviy o‘zbek romanlarida portret tasvirida sifatiy o‘zgarish va takomillashish jarayoni kechayotgani, xususan, obraz yaratishda uning ijtimoiy-tarixiy, milliy va individual belgilarini chizishda batafsillikka rioya qilish, qahramonni davr va hayot tarzi bilan bog‘lashga intilish kuchaygani aniqlangan.

Obrazlar xarakterini A.Dilmurod uslubi va tayangan metodlaridan kelib chiqib belgilar ekanmiz, zamonaviy romanlardagi portret tasvirida sifatiy o‘zgarish va takomillashish jarayoni kechayotganligi ayon bo‘ladi. Jumladan, yozuvchi obraz yaratishida ikki xil usul ko‘zga tashlanadi:

Birinchi usulda, inson obrazi ayrim shtrixlar orqali ishoraviy tarzda aks etadi. Asar g‘oyaviy-emotsional jihatlari ramziy-majoziy planda kuchaytiriladi. Bunday hollarda qisman grafik usulga ham murojaat etiladi. Umuman, Komron chizgilarida rangtasvir dominatlik qiladi va u grafika bilan uzviy bog‘lanib ketadi.

Ikkinchi usulda, inson fe’lidagi barcha nozik o‘zgarishlar to‘liq ochiladi. O‘y-xayol, xotira va tasavvurlar mufassal beriladi. Ya’ni, obrazning plastik tomonlari kuchaytiriladi. Portret personajning tashqi va ichki ruhiy-psixologik qiyofasini yaratish vositasiga aylanadi. Adib so‘z vositasida tasvirlagan portretlarida xarakterlar mohiyatini ular tashqi ko‘rinishi (*qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari*)ni kitobxon tasavvurida jonlantirish orqali ochadi. Ya’ni, to‘laqonli inson obrazini yaratadi.

Muallif obrazining aniq psixo-fiziologik va badiiy nazariy asoslari xususida gap ketarkan, adabiyotshunos Suvon Meli ta’kidlagan: *“Muallif obrazi – asardagi tasvir va voqea majmuidan tasavvurda yaraladigan yaxlit ruhoniy qiyofa, taxayyul shaxsi”*[47], – degan fikrga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Zotan, olim badiiy asarni yaratgan real shaxs – muallif bilan shu asarning uzviy qismiga aylangan muallifni bir-biridan keskin farqlaydi. Bu fikrlar romandagi rassom obrazini izohlashda ham qo‘l keladi. U, asosan, hajmli fazoviy usuldan foydalanib, tasvirni nursoya yordamida ijtimoiy muhit bilan bog‘laydi. Uning dastgoh san’atiga xos tasviri g‘oyatda ta’sirchan tarzda tuslanuvchi ranglarga boy. A.Dilmurod murakkab kompozitsiya va abstrakt tushunchalar, majoziy obrazlar tizimini yaratadi. Nozik va nafis chizgilar orqali salmoqli mazmun ifodalashga erishadi.

Uning ifoda tizimi ko‘p qatlamli. Ijtimoiy hayotga teran kirib borishiga ko‘ra aniq ilmiy asosga ega. Tasvirlarda inson ruhiy olamidagi nozik o‘zgarishlar, inson va jamiyat, inson va borliq muammolari ishonarli talqin etilgan. Rassom dunyoqarashining o‘ziga xos jihati shundaki, u davrning murakkab va fojiali voqealari, ijtimoiy hayot illatlarini o‘tkir tanqid ostiga olgan. Shunga mos nursoya nisbatlari ifodasi ham ancha keskin. Munosabatda esa, mislsiz shijoat namoyon bo‘ladi. Asarda ranglar kechinma va taassurot, xayol va o‘ylar ifodasiga qaratilgan. Ammo unda borliqdagi ranglar ham tuslanadi, bir-biriga ta’sir etadi. Natijada, milliy tarixning yaqin o‘tmishi va makon-u zamon muammolari bilan chambarchas bog‘lanadi. Ularda shafqatsiz realizm bilan bir qatorda, romantizm uslubiga xos belgilar ham namoyon bo‘lgan. Zotan, *“Toshqin”* turkumi o‘ziga xos mozaikadir.

Bizningcha, romanda ilg‘or jahon adabiyot va san’ati turli oqimlariga xos unsurlar milliy-adabiy an’analar negizida sintezlashgan. Shubhasiz, bu jarayonda dominantlik rolini Sharq adabiyoti an’analari asosida tobora kengayib borayotgan o‘zbekona poetik tafakkur miqyoslari o‘tamoqda.

Bobning 3.2 §da adib ijodidagi ***“Mushtaraklik va o‘ziga xoslik”*** masalasi o‘rganilgan. Ushbu paragrafda Asad Dilmurodning an’anaviy yo‘sindagi “Pahlavon

[47] Сувон Мели. Сўзу сўз. (“Адабиёт фалсафаси”га чизгилар) – Тошкент: Шарқ, 2020. – Б. 118.

Muhammad”[48] hamda noan’anaviy shakl va ifoda uslubida yozilgan “Zarradagi olam” romanlari tahlilga tortilgan.

“Pahlavon Muhammad” romanida bosh qahramon siymosi talqini orqali donishmand alloma g‘oyalarining insonparvarlik mohiyati ko‘rsatilgan, muallifning unga kechinmadoshlik tuyg‘ulari ifodalangan. Qahramonni ma’naviy-ruhiy poklanish yo‘llaridan olib o‘tish orqali kamolotga yetaklashda yozuvchi uning iymon-e’tiqodiga alohida diqqat qaratadi. Butun odamlardan ma’naviy-ruhiy madad olib, ozodlik sari talpingan qahramon o‘zining jaholatga qarshi kurashish maslagiga safdoshlarini ham ishontira oladi. U faylasuf allomagina emas, eldoshlarining homiysi timsolida talqini qilinadi. Adib Pahlavon Muhammadning ruhoniy portretini chizishga, pahlavon valiy xarakterining ilohiylik qirrasini yoritishga intiladi.

Boshqacha aytganda, romandagi ziddiyatlar nafaqat shaxs va jamiyat, ezgulik va yovuzlik, balki iymon va nafs o‘rtasida ham kechadi. Muallif jismoniy kuchlar to‘qnashuvini davr ruhidan ajratmaydi, ichki kolliziya fonida aks ettiradi. Pahlavon Muhammad shaxsiyatidagi erkka intilish, so‘fiylik, baland insoniy g‘ururdan keluvchi andak kibr, qat’iyat, ishonch, yuksak ruhoniy ulug‘vorlik, yig‘iqlik, allomalik, oshiqlik, oddiylik, chapanilik hazilkashlik kabi vaziyat talabi bilan o‘zgarib turuvchi ruhiy holatlar uning ijtimoiy faoliyatidagi insonparvarlik va vatanparvarlik fazilatlari bilan tabiiy uyg‘unlikda jonli manzaralar orqali mahorat bilan tasvirlanadi.

“Zarradagi olam” romanida e’tiqod, imon, mehr-oqibat va muhabbat mohiyati Qurama cho‘li manzaralari bilan chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Natijada, Qurama tasvirlari Vatan muhabbati, moddiylashgan yorga bo‘lgan ishq talqinlari esa e’tiqodiy muhabbat tasviriga aylanadi. O‘quvchi mutolaa asnosida Qurama cho‘li tarixida muhim o‘rin tutgan turfa riyozat bosqichlaridan o‘tib boradi va o‘sha riyozat og‘ushida nafas oladi. Boshqacha aytganda, beayov vaqt va evriluvchan makonga daxldor o‘n to‘qqiz manzildan kechib, yorug‘ olamni umid va ezgulik, go‘zallik va muhabbat asrab qolishiga imon keltiradi.

Yozuvchi nazdida Qurama cho‘li tabiat botini va zuhurida muttasil kechuvchi zanjirsimon harakat yakunidir. Nafs ilinjidagi turfa evrilishlar ham muayyan harakat-intilshilar, ya’ni, gumrohlik va loqaydlik oqibati. Binobarin, roman o‘quvchini sir-sinoati bisyor dunyo va inson bilan diydorlashtiradi. Tabiiy va ijtimoiy bo‘hronlarda toblanishga, qalb ko‘zi bedor kimsalarga esh, ezgu amallarga kamarbasta bo‘lish, botin va zohirda nihon asror tizimini idrok etishga undaydi.

Ushbu bobda “Rang va mehvar” romani bilan fransuz yozuvchisi Marsel Prustning “Yo‘qotilgan vaqtni izlab” turkum romanlari[49] tarixiy va qiyosiy aspektda o‘zaro chog‘ishtirilgan. Har ikkala adib ifoda uslublarining kelib chiqishi, tadriji va badiiy ifoda shakllari tahlil qilingan. Badiiy-estetik konsepsiyalarining tarixiy-genetik, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy mushtarakligi va individualligi oydinlashtirilgan. Har ikkala adib romanlari konflikti psixologik jarayon hamda real voqelik to‘qnashuvi asosida yuzaga kelishi jihatidan o‘zaro yaqin ekani aniqlangan.

[48] Асад Дилмурод. Паҳлавон Муҳаммад. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2006.
[49] Холбеков М. Марсель Пруст прозаси // Шарқ юлдузи, 2012, 2-сон. – Б. 118–131.

Zotan, ular yuksak insoniy tuyg‘ular zavoli sabablarini izlashadi. Ammo o‘sha sababni M.Prust jamiyat, A.Dilmurod esa, iymon-e’tiqod orqali izohlashga mayl bildiradi. Chunki, M. Prust uchun bosh mavzu san’at va ijod, A.Dilmurod uchun bunga qo‘shimcha tarzda pokiza iymon e’tiqod ham yagona qadriyatdir.

Har ikkala adib ijodida kuzatiluvchi “ong oqimi”da ham mushtaraklik va tafovutlar mavjud. Masalan, ular uchun “ong oqimi” birinchidan, tasvir obyekti. Ikkinchidan, real voqelik obrazlarini o‘ziga xos talqin etish usuli. Zotan, yozuvchilar XX asr manfaatparastligi, ma’naviy qashshoqligi va dag‘alligini qabul qilisha olmaydi. M.Prust moddiy-ma’naviy qimmatlar negiziga shaxsni qo‘yadi. U fransuz intellegensiyasi ma’naviy-ruhiy yolg‘izligini psixologik tahlil etadi. Bundan farqli o‘laroq, A.Dilmurod iymon-e’tiqod butligi shaxs barqarorligi omili ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA

1. Asad Dilmurodning samimiy inson va ko‘ngil kishisi sifatida kamol topishi, iste’dodli adib sifatida shakllanishining oilaviy-genetik, sharqona milliy hamda mental kodlari mavjud. Bolalik va o‘smirlik davrida shakllangan e’tiqodiy qarashlari, xalq udumlari, urf-odatlariga ehtirom tuyg‘ulari, hayotdan olgan ibratlari keyinchalik qayta uyg‘onib, yozuvchining “Afrosiyob”, “Xilvat”, “Sherdor”, “Girih”, “Toshburgut”, “Sirli zina”, “Mezon burji”, “Mahmud Torobiy” singari esse, hikoya, qissa va roman janrlariga mansub asarlariga ko‘chgan. Adibdagi yuksak milliy g‘urur bu asarlarning g‘oyaviy-badiiy konseptualligi, kompozitsion yaxlitligi, obrazlarining ishonchli, jonli va hayotiy chiqishi va estetik ta’sirchanligini ta’minlagan.

2. Adib tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ining go‘zal tabiati, qadimiy tarixi, oddiy, zahmatkash va bag‘rikeng odamlarining kundalik hayoti A.Dilmurod ko‘nglida romantik yuksaklik, realistik xolislikni ulg‘aytirgan. Yozuvchi shaxsiyatining ajralmas uzvi sifatida kamol topgan bu fazilatlar uning “Non”, “Og‘ir kun”, “Xarsang”, “Ko‘chki” kabi hikoyalari, shuningdek, “Olloyoron kabi yuksal, Urgutim!”, “Bo‘sag‘a” singari esselarida o‘z ifodasini topgan.

3. A.Dilmurodning “Sherdor” qissasi uch va “Mahmud Torobiy” romani olti variantda tayyorlangan. Yozuvchi badiiy ijod laboratoriyasi bilan bog‘liq bunday fenomenal holat uning ijod mas’uliyatini teran his qilishi, mehnatsevarligi, sabr-bardoshi va mislsiz matonatidan darak beradi. Yozuvchining ona qishlog‘i, shahar qurilish-montaj tashkiloti, turli tahririyatlar, xalq turmushi, ustozlar ibrati kabi jonli hayot ichida fikr-tuyg‘ulari kamol topdi, ular negizida ijodiy niyati kurtak ochdi. Jumladan, “Toshburgut”, “Sirli zina”, “Sherdor”, “Girih” kabi qissalari ilk tarhlari gazeta tahririyatlarida shakllangan.

4. A.Dilmurod adabiy merosini shartli ravishda: a) publitsistik maqolalar; b) badiiy ijod va estetik olam haqidagi ilmiy-ommabop kuzatishlar; d) adabiy-estetik, tarixiy-biografik, publitsistik, ilmiy-ommabop va sof belletristik esselar; e) she’rlar; f) hikoya, qissa va romanlar; g) kinossenariylar tarzida tasniflash mumkin. Yozuvchi ong-shuurida shakllangan fikr-o‘ylar, ko‘nglida kechgan yuksak tuyg‘ular ijodiy niyatdan poetik matngacha takomillashib borgan. Adib o‘z iste’dodini to‘g‘ri baholagan va mahoratini muttasil oshirib borgan. Ijodkor shaxs qalb qo‘ri, samimiyati badiiy konsepsiyaga

ko‘chganki, bu uning barcha tur va janrlardagi asarlari yashovchanligini ta’minlagan omillardir.

5. Yozuvchining ilk ijodida qisman umumsho‘ro adabiyotining tendensioz qarashlari, xususan, sinfiy kurash g‘oyasi ta’siri seziladi. Biroq, ijodkor totalitar tuzum adabiy siyosati ta’siridan tezda qutulib, realistik, modernistik va postmodernistik ifoda uslublarini o‘zlashtirgan. Uning adabiy merosidagi bunday ichki ijodiy siljishlar, dastavval, o‘z hikoya va qissalari turli yillardagi variantlarini chog‘ishtirish, qolaversa, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, rus adibi Nikolay Gogolning “Taras Bulba” qissasi, fransuz yozuvchisi Prosper Merimening “Mateo Falkone” novellasi bilan tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik yo‘sinlarda o‘rganish natijasida yaqqol namoyon bo‘ladi. A.Dilmurod badiiy-psixologik tahlil imkoniyatlaridan barakali foydalanib, qahramonlar ruhiyatini ularning e’tiqodi, milliy axloqi, insoniy tuyg‘ulari uyg‘unligida nozik badiiy tahlil qilgani kuzatiladi.

6. A.Dilmurod – tabiatan kayfiyat va ko‘ngil odami. Shu bois, “Osmonning bir parchasi” nomli ilk hikoyasidayoq tabiatning rang va ohanglar dunyosiga oshno Donish ismli qahramon obrazi misolida odamning eng kichigi ham benihoya ulkan bir olam, uning ham o‘z dunyosi, o‘z osmoni borligiga e’tibor qaratdi. Binobarin, yozuvchi keyinchalik badiiy ijodining qon tomiriga aylangan muhim estetik tamoyillarni belgilab oldi. Adibning qator hikoya va esselari, “Sherdor”, “Girih” qissalari, “Rang va mehvar”, “Zarradagi olam” romanlarini kuzatish shuni tasdiqlaydiki, A.Dilmurod rang va ohanglar musavviri bo‘lib, ular bag‘ridan ilohiy bir mohiyat izlagan, o‘z anglamlarini qahramonlar ruhiyatiga ko‘chira olgan, ramz va majozlar tilida so‘zlash mahoratini egallagan adibdir.

7. A.Dilmurodning “Bronza bo‘ri” essesi adib dunyoqarashi beqiyos keng, yuksak eruditsiyali ekanini ko‘rsatadi. Asarda yozuvchi dunyoni ezgulik – yovuzlik; rost – yolg‘on; quvonch – qayg‘u kabi dualistik tushunchalar orqali anglaydi. Shuning uchun uning aksariyat asarlarida kechmish + bugun + kelajak uchligi (triadasi) bilan bog‘liq g‘oyaviy-estetik konsepsiya dominantlik qiladi. Adib insoniy va ijodiy shaxsiyati, adabiy-estetik qarashlari ezgulik, haqiqat va adolat tamoyillariga asoslangani uning estetik ideali hamda adabiy qahramonlari tabiatini ham belgilab beradi.

8. Yozuvchi asarlarida harakatning epik bayonchi fikr-mulohazalari va qahramonlar botinida kechuvchi ruhiy-psixologik, hatto patologik holatlarni tasvirlashga yo‘naltirilgani kuzatiladi. Bu hol A.Dilmurodning “Fano dashtidagi qush”, “Rang va mehvar”, “Zarradagi olam” singari modern yo‘nalishdagi romanlarida yaqqol ko‘rinadi. Adib asarlarini F.M.Dostoyevskiy, Jyul Vern, Mayn Rid, 4 Svift kabi rus va jahon adabiyotining yetuk yozuvchilari ijodi bilan qiyoslash uning xayolot ufqi behad keng ekanini tasdiqlaydi.

9. A.Dilmurod “ong oqimi”ga asoslangan “Rang va mehvar” romanida insonga yuksak qadriyat deb qarash, psixologik portret yaratish, hayot mohiyatini samimiy ifoda etish kabi badiiy uslubning yangi shakllarini faol qo‘llagan. Unda inson ongining bir necha qatlamlarini anglashga va ishonarli ko‘rsatishga intilgan. U yaratgan obrazlar sirli ishoralarga asoslanadi. Adib ishoraviylik negizida yaratilgan obrazlar orqali inson ongining chuqur puchmoqlariga nazar tashlaydi.

10. Adib obyektni dunyo oqimidan ajratib emas, balki uyg‘unlikda mushohada etadi, shuning uchun ham hodisalarni bilishdan g‘oyalarni anglash sari boradi. San’at

asari irratsional mohiyatini inkor qilmagan holda turli tasavvur va mushohadalarga keng o‘rin ajratadi. “Rang va mehvar” romanida e’tiqoddan mahrum kimsalar simvolik obrazining o‘ziga xos turkumini yaratadi. Marsel Prustning “Yo‘qotilgan vaqtni axtarib” asari kabi “Rang va mehvar” ham intellektual roman. Ularda tashqi dunyo ketma-ketlik asosida, makoniy va zamoniy chambarchas bog‘lanmagan xotira – xayol – tush – reallik sintezida tasvirlanadi. O‘zbek adibi insonni jamiyatdagi mavqeyiga ko‘ra emas, balki ma’naviy-ruhiy dunyosi nechog‘lik butun ekaniga ko‘ra farqlaydi. M.Prust esa, o‘z qahramonlari muhitini butkul rad etadi.

11. Yozuvchi “Zarradagi olam” rivoyat-romanida mifologik unsurlar va mumtoz adabiyot an’analari, xususan, tasavvufona ohanglar, ramz-majozlar ishoraviylikdan barakali foydalangan. Ayni paytda, dunyo adabiyotining ilg‘or adabiy oqimlari tajribalaridan ham ijodiy foydalangan. Yuqoridagi xususiyatlariga ko‘ra, bu roman nainki, Asad Dilmurod ijodi, balki zamonaviy intellektual romanchiligimizning ham muhim yutug‘idir.

Umuman, Asad Dilmurod shaxsiyati va nasriy merosini kompleks o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi nasrida muallif shaxsiyati bilan ijodiy tutumi o‘zaro uyg‘unlik kasb etadi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12. 2019.Fil.19.01 ON AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

ALISHER NAVO'I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE

DILMURODOVA NILUFAR ASATULLAEVNA

THE HARMONY OF THE AUTHOR'S PERSONALITY AND CREATIVE ATTITUDE IN THE PROSE OF ASAD DILMUROD

10.00.02 – Uzbek Literature
(20th Century Uzbek Literature and Modern Literary Process)

DISSERTATION ABSTRACT
of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

Tashkent – 2025

The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under number B2023.1.PhD/Fil3074.

The dissertation has been carried out at the Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of the Scientific Council (www.tsuull.uz) and Information-educational portal "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Yakubov Islamjon Akhmedjanovich** Doctor of Philological Sciences, Associate Professor
Official opponents:	**Miliev Suvonkul** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Yuldashev Kozokboy Boybekovich Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Official opponents:	**Samarkand State University**

The defense of dissertation will take place on May 1, 2025 at 14^{00} at the meeting of the Scientific Council DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 at Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. (Address: Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city, 100100. Tel.: (99871) 281-42-44; fax: (99871) 281-42-44, www.tsuull.uz; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

The doctoral dissertation can be reviewed in the Information-Resource Centre of Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature (registration under №341). Address: 100100, Yusuf Khos Hajib street, 103, Yakkasaray district, Tashkent city. Phone: (99871) 281-42-44.

The abstract of dissertation is distributed on "19" 04 2025.

(Protocol at the register № 2 of "19" 04 2025).

H.A. Dadaboyev
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

K.U.Pardayev
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

N.A. Jabborov
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

The topicality of the dissertation. In world literary studies, the creative personality of a poet, writer, and playwright, their literary-aesthetic views, and the harmony of their artistic work, as well as the study of the author's "self" and its essence in their literary works, hold significant scientific and theoretical importance. Indeed, the individuality of each writer is manifested in their: a) entire faith and beliefs; b) loyalty to their "self"; c) deep understanding of creative responsibility; d) hard work; e) creative assimilation of the experiences of their predecessors and contemporaries; f) artistic-aesthetic response to the pressing life issues posed by the current agenda; g) subtle perception of the complex transformations and changes occurring in the consciousness and psyche of their contemporaries; h) ability to poetically express their unique understanding and emotional perception of the truths they comprehend; i) loyalty to the truth and their impartial position, and many other factors. In fact, the writer listens to the rhythm of the cultural life of their time. They seek artistic solutions to life problems and issue a certain poetic judgment.

In world literary studies, numerous pressing literary-aesthetic issues are being discussed, such as the creative personality of the writer and their response to the socio-cultural, moral, and ethical changes and innovations occurring in their time, the leading principles and sources of their artistic creation, the mechanisms of how their literary-aesthetic views are translated into their work, and the secrets of poetic mastery. Naturally, this calls for keeping pace with the rapidly and globally developing era, examining the creative laboratories of poets, writers, and playwrights based on existing advanced scientific schools and diverse stylistic trends and approaches in world literary-aesthetic thought. This study also requires an exploration of their creative evolution, the literary processes of the time, and the context of a unified literary tradition.

In Uzbek literary studies, identifying the roots of the socio-political and literary-psychological factors that bring about the writer's creative activity, the "self" of the creator, their creative laboratory, and the coherence of their overall work is important not only within the framework of literary-aesthetic canons, such as creative intention, aesthetic ideals, creative concepts, and poetic mastery, but also in terms of the psychology of artistic creation, the writer's relationship with literary tradition, their creative credo, the breadth of their poetic thinking, the heights of their imagination, and their worldview, which are based on literary-philosophical and socio-psychological issues. This process has always been relevant in every stage of literary scholarship, emerging as much as the era allowed. During the period of independence, with the opportunities provided by free pluralistic thinking, it has become even more active. Indeed, "The unique and unparalleled scientific-spiritual legacy of our great ancestors should become a constantly active life program for us. This immortal legacy must always be with us, providing us with strength, power, and inspiration"[50]. The importance of analyzing and researching these characteristics for literary studies is confirmed by the relevance of this research topic, which is exemplified through the literary personality,

[50] Мирзиёев Ш.М. "Ўқитувчи ва мураббийлар – янги Ўзбекистонни барпо этишда катта куч, таянч ва суянчимиздир". Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи. 2020 йил, 30 сентябрь. – Б. 1.

artistic creative laboratory, and coherent body of work of our beloved writer Asad Dilmurod (1947-2019).

The research presented in this dissertation serves to some extent in fulfilling the tasks outlined in the following documents: the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan, No. PF-4797 of May 13, 2016, on the establishment of the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature; the Decree No. PF-6108 of November 6, 2020, regarding the measures for the development of education, upbringing, and science in the new era of Uzbekistan; Decree No. PF-60 of January 28, 2022, on the "Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026"; the Resolution No. PQ-3271 of September 13, 2017, on the development of the publishing and distribution system for books, promotion of reading culture, and the increase of book readership; as well as other relevant regulatory and legal documents related to this activity.

Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic. The dissertation was carried out within the framework of priority focus of the development of science and technology of the republic I. "Formation of the system of innovative ideas in the social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of the information society and the democratic state and the ways of their implementation".

The degree to which the problem has been studied. In world, Uzbek, and related peoples' literary studies, the issues related to the author's creative personality and creative laboratory have been studied to a certain extent. A number of works have emerged based on the main principles of the biographical method in scientific research. In these works, the writer's biography and creative activity are interpreted as a unified whole. These include works such: "Literary Portraits, Critical Sketches" (Adabiy portretlar, tanqidiy ocherklar), "The Life, Poems, and Ideas of Joseph Delorme (Sent-Byov)" (Jozef Delorm hayoti, she'rlari va fikrlari (Sent-Byov)[51], "Literary Portraits" (Adabiy portretlar), "Olympia or the Life of Victor Hugo" (Olimpia yoki Viktor Gyugo hayoti), "Honoré de Balzac (A. Morua) (Onore de Balzak (A.Morua)[52], "The Chemistry of Words (Yan Parandovskiy)" (So'z kimyosi (Yan Parandovskiy)[53], "Conversations with Goethe (I.P. Eckermann)" (Gyote bilan suhbatlar (I.P.Ekkerman)[54], "Andre Morua" (F.Narkirier)[55], "The Art of Interpretation and Evaluation (Yu. Borev)" (Talqin va baholash san'ati (Yu.Borev)[56] all of which demonstrate the significant place of the biographical method in world literary studies[57]. In the articles and research of writers

[51] Жданов В.Н. Метод Сент-Бева как историка французской литературы. Дисс. канд. филол. наук. – М.: МГУ, 1978; Обломиевский Д.Д. Сент-Бёв – поэт. Французский романтизм. – М.: Гослитиздат, 1947; Симонова Л. А. Французский личный роман: автор/герой (Шатобриан, Констан, Сент-Бёв, Бальзак). – М.: Буки Веди, 2013.

[52] Моруа А. Олимпио или жизнь Виктора Гюго. – М.: Россия-Кириллица, 1992; Он же. В поисках Марселя Пруста. Перевод с фр. Д. Ефимова. – СПб.: Лимбус Пресс, 2000.

[53] Парандовский Я. Алхимия слова. – М.: Прогресс, 1972.

[54] Эккерман И.П. Разговоры с Гёте в последние годы его жизни. Перевод. Н.Ман. – М.: Художественная литература. 1981; Shu muallif. Гёте билан гурунглар. (Олмон тилидан Янглиш Эгамова таржимаси). – Тошкент: O'zbekiston, 2016.

[55] Наркирьер Ф.С. Андре Моруа. – М.: Художественная литература. 1974.

[56] Борев Ю. Искусство интерпретации и оценки: (Опыт прочтения «Медного всадника»), Советский писатель. – Москва, 1981.

[57] Сент-Бёв. Литературные портреты. – М.: Художественная литература, 1970; Он же. Жизнь, стихотворения и мысли Жозефа Делорма. – Л.: Наука, 1985; Моруа А. Литературные портреты. – М.: Прогресс, 1971; Он же.

such as A. Seytlin, P. Medvedov, Yu. Oklyanskiy, B. Meylakh, T. Kuzminskaya, L.M. Leonov, B.A. Grifsov, M.B. Khrabchenko, and L. Tolstoy, issues such as the writer's creative responsibility and the struggle of artistic creativity, the artistic creative laboratory, the process of writing and artistic refinement of a particular work, and its survival through the test of time, as well as matters related to talent and potential, were explored[58]. In the research of T.N. Arkhangelskaya, B.A. Grifsov, L.P. Gromov, A.G. Kovalyov, B. Meylakh, P. Medvedov, M. Khrabchenko, Yu.G. Nigmatullina, V.V. Novikov, E.Sh. Salimziyanova, R. Muzaffarov, N.M. Fortunatov, A.G. Seytlin, B. Sarimsoqov, M. Mahmudov, N. Rahimjonov, U. Joraqulov, S. Tolaganova, K. Hamroyev, K. Kamolov, K. Mambetov, and Z. Bekbergenova, themes such as inspiration, the biography of a literary work, biographical approach, the creative laboratory, the psychology of creativity, secrets of artistic mastery, literary influence, the real-life foundation of image and prototype, the role of talent in the creative process, the complex study and forecasting of artistic creativity, and the scientific-theoretical value of studying the writer's creative laboratory were examined[59].

In the period of independence, the attention to the study of issues related to creative psychology, creative laboratories, and the harmony of literary-aesthetic views in Uzbek literary studies has increased. In the scientific research of various generations of literary scholars such as M. Qo‘shjonov, N. Karimov, O. Sharafiddinov, U. Normatov, A. Rasulov, B. Nazarov, H. Umurov, H. Boltaboyev, I. Haqqulov, Q. Qahramonov, Q. Yo‘ldoshev, D. Quronov, U. O‘ljaboyev, U. Jo‘raqulov, B. Karimov, I. Yoqubov, A. Ulug‘ov, M. Qo‘chqorova, D. Xoldorov, and A. Xamroqulov, various aspects of this

---

Олимпиа или жизнь Виктора Гюго. – М.: Прогресс, 1983; Он же. Оноре де Бальзак // Жаҳон адабиёти. 1999, №8; Парандовский Ян. Алхимия слова. – М., 1972; Эккерман И.П. Разговоры с Гёте. – М., 1981; Наркирьер Ф. Андре Моруа. – М., 1974; Борев Ю. Исскуства интерпретации и оценки. – М., 1981; Бахаров В.С. Литературный портреты. – Л.: Наука, 1985.

[58] Цейтлин А.Т. Труд писателя. – М., 1968; Медведов П. В лаборатории писателя. – М., 1971; Оклянский Ю. Рождение книги. – М., 1973; Мейлах Б. Талант писателя и творческие процессы. – М., 1969; Кузьминская Т.А. Воспоминания. – Тула, 1959; Леонов Л.М. Литература и время. – М., 1964; Грифцов Б.А. Как работал Бальзак – М., 1958; Храпченко М.Б.Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – М., 1970; Храпченко М.Б. Лев Толстой как художник. – М., 1971; Толстой Л.Н. О литературе. – М., 1955.

